

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 62 987,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 108,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,4 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	53 640,0	62 987,5	107,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	52 710,5	61 858,9	107,8
mahsulotlarga sof soliqlar	929,5	1 128,6	109,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	52 710,5	61 858,9	107,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17 982,9	20 190,5	104,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	13 018,0	15 359,0	110,5
sanoat	8 250,1	9 487,6	108,4
qurilish	4 767,9	5 871,4	114,0
xizmatlar	21 709,6	26 309,4	108,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 560,9	9 150,3	110,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 295,5	4 514,2	118,8
boshqa xizmat tarmoqlari	10 853,5	12 644,9	104,4





YALPI HUDUDIIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

3

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 30 713,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,9 % ga yuqoridir.

**2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi**
(ming so'mda)



**2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

4

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,2
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,1	32,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,7	24,8
sanoat	15,7	15,3
qurilish	9,0	9,5
xizmatlar	41,2	42,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,3	14,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,3	7,3
boshqa xizmat tarmoqlari	20,6	20,5



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,6 % ni, sanoat tarmog'i 15,3 % ni, qurilish 9,5 % ni va xizmatlar sohasi 42,6 % ni tashkil aildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)






YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

6

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 3,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)






YALPI HUDUDY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

7


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,6 %), sanoatda – 108,4 % (15,3 %), qurilishda – 114,0 % (9,5 %), xizmatlar sohasida – 108,8 % ni (42,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,8 % (14,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,8 % (7,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % dan (20,5 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 108,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 111,4 % va qurilishda – 108,0 % qayd etildi.

**Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 44 268,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – 38 384,5 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 71,6 % ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida -72,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

